



NAVOIY VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI

Navoiy viloyati statistika boshqarmasi
Tashqi iqtisodiy faoliyat va
savdo statistikasi bo'limi
Tel.: (99879) 223-50-43



TASHQI SAVDO AYLANMASI



Navoiy viloyatida olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Viloyatida bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, **2023-** yil yanvar-mart oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) **292,0 mln. AQSH dollariga yetdi** va **2022-** yilning mos davriga nisbatan **113,3 %** ni tashkil etdi.



TASHQI SAVDO AYLANMASI (yanvar-mart, mln. AQSH dollar)



Tashqi savdo aylanmasi

2023- y.: **292,0** 113,3 %

 Saldo

(2022- y.: **257,6**)

2023- y.: **3,8** (2022- y.: - **9,0**)



Eksport

2023- y.: **147,9** 118,9 %

 Tovarlar: **147,6**

(2022- y.: **124,3**)

 Xizmatlar: **0,3**



Import

2023- y.: **144,1** 108,1 %

 Tovarlar: **140,4**

(2022- y.: **133,3**)

 Xizmatlar: **3,7**

Tashqi savdo aylanmasi – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarning tashqi savdo statistikasi O‘zbekiston Respublikasi bojaxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojaxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralariga qo’shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobini tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.

 Navoiy viloyati jahoning **51** ta mamlakatlar bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Fransiyada (**33,2 %**), Rossiya Federatsiyasida (**19,6 %**), Xitoy Xalq Respublikasida (**13,3 %**), Qozog‘istonda (**6,1 %**) va Turkiyada (**5,3 %**) qayd etilgan.



NAVOIY VILOYATI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO’LGAN DAVLATLAR

(2023- yil yanvar-mart, mlн. AQSH dollari)

Davlatlar	TSA	Eksport	Import	Ulushi, % da
Fransiya	96,9	96,5	0,4	33,2
Rossiya Federatsiyasi	57,3	11,9	45,4	19,6
Xitoy Xalq Respublikasi	38,8	1,1	37,7	13,3
Qozog‘iston	17,8	4,0	13,8	6,1
Turkiya	15,5	7,6	7,9	5,3
Hindiston	15,0	10,9	4,1	5,2
Litva	6,3	1,9	4,4	2,2
Afg‘oniston	5,2	5,2	-	1,8
Qirg‘iz Respublikasi	3,4	2,9	0,5	1,2
Koreya Respublikasi	3,4	0,1	3,3	1,2

O‘zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistik ko‘rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (**keyingi o‘rinlarda TIF TN**) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (**keyingi o‘rinlarda – XSST**) ishlataladi. Bu o‘z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni **XSST** bo‘yicha kodlashtirish, **TIF TN** va **XSST** o‘rtasida o‘tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

So‘ngi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikasiya qilishda, eksportni qo‘llab-quvvatlash, import o‘rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida, eksport tarkibida sezilarli o‘zgarishga erishildi.



Shuningdek, qo‘shni davlatlar bilan o‘zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko‘rish mumkin.



Xususan, qo‘shni davlatlar Qozog‘iston, Afg'oniston va Qирг'из Respublikasi bilan TSA da so‘ngi yillarda katta o‘zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so‘ngi uch yilda TSA Qozog‘iston, Afg'oniston va Qирг'из Respublikasi bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoxda.

Boshqa davlatlar (qo‘shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSA da eng yuqori ulush Fransiya, Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Turkiya, Hindiston, Litva, Koreya Respublikasi, Latviya va Chexiya Respublikasi hissasiga to‘g‘ri kelgan.



NAVOIY VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-mart, mln. AQSH dollar)

Davlatlar	2021- y.	2022- y.	2023- y.
Fransiya	1,6	36,1	96,9
<i>Eksport</i>	-	35,5	96,5
<i>Import</i>	1,6	0,6	0,4
Rossiya Federatsiyasi	36,2	57,1	57,3
<i>Eksport</i>	8,0	25,5	11,9
<i>Import</i>	28,2	31,6	45,4
Xitoy Xalq Respublikasi	47,5	42,2	38,8
<i>Eksport</i>	30,6	0,6	1,1
<i>Import</i>	16,9	41,6	37,7
Qozog'iston	14,5	31,0	17,8
<i>Eksport</i>	2,9	4,2	4,0
<i>Import</i>	11,6	26,8	13,8
Turkiya	18,8	12,2	15,5
<i>Eksport</i>	9,4	7,1	7,6
<i>Import</i>	9,4	5,1	7,9
Hindiston	0,8	3,9	15,0
<i>Eksport</i>	0,1	-	10,9
<i>Import</i>	0,7	3,9	4,1
Litva	18,8	2,6	6,3
<i>Eksport</i>	2,3	2,0	1,9
<i>Import</i>	16,5	0,6	4,4
Afg'oniston	1,4	3,8	5,2
<i>Eksport</i>	1,4	3,8	5,2
<i>Import</i>	-	-	-
Qirg'iz Respublikasi	1,5	3,7	3,4
<i>Eksport</i>	1,2	3,1	2,9
<i>Import</i>	0,3	0,6	0,5
Koreya Respublikasi	10,0	6,3	3,4
<i>Eksport</i>	-	-	0,1
<i>Import</i>	10,0	6,3	3,3


Davlatlar	2021- y.	2022- y.	2023- y.
Latviya	18,8	0,1	3,2
<i>Eksport</i>	2,3	-	-
<i>Import</i>	16,5	0,1	3,2
Chexiya Respublikasi	7,9	0,7	2,6
<i>Eksport</i>	0,1	-	-
<i>Import</i>	7,8	0,7	2,6
Yaponiya	10,6	1,4	2,5
<i>Eksport</i>	-	-	-
<i>Import</i>	10,6	1,4	2,5
Belarus Respublikasi	5,3	0,2	1,9
<i>Eksport</i>	0,3	0,1	1,7
<i>Import</i>	5,0	0,1	0,2
Estoniya	2,5	-	1,9
<i>Eksport</i>	-	-	-
<i>Import</i>	2,5	-	1,9
Ispaniya	-	-	1,8
<i>Eksport</i>	-	-	-
<i>Import</i>	-	-	1,8
Kanada	47,1	38,0	1,7
<i>Eksport</i>	45,4	36,8	-
<i>Import</i>	1,7	1,2	1,7
Polsha	-	0,8	1,7
<i>Eksport</i>	-	0,6	0,3
<i>Import</i>	-	0,2	1,4
Finlyandiya	0,8	-	1,7
<i>Eksport</i>	-	-	-
<i>Import</i>	0,8	-	1,7
Germaniya	2,9	3,6	1,5
<i>Eksport</i>	-	-	-
<i>Import</i>	2,9	3,6	1,5



NAVOIY VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI (2023- yil yanvar-mart)

	Hajm Ming AQSH dollarlari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
Navoiy viloyati	292 000,9	113,3	100,0
Navoiy sh.	184 299,1	136,7	63,1
Zarafshon sh.	1 885,7	73,1	0,6
G'ozg'on sh.	868,8	4,3 b.	0,3
<i>tumanlar:</i>			
Karmana t.	68 551,7	78,6	23,5
Konimex t.	456,5	2,4 b.	0,2
Qiziltepa t.	14 897,0	139,6	5,1
Navbahor t.	11 603,8	133,5	4,0
Nurota t.	1 695,5	94,4	0,6
Tomdi t.	350,4	146,5	0,1
Uchquduq t.	2 717,6	32,3	0,9
Xatirchi t.	4 413,6	182,3	1,5
Bo'linmaydigan hajm	261,2	-	0,1


Eng yuqori hajm,
ming AQSH dollarari



Karmana t. 68 551,7




Eng quyisi hajm,
ming AQSH dollarari



Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Navoiy shahri **63,1 %** ulush bilan **184 299,1** ming AQSH dollarini tashkil etdi.

Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng quyisi ulushni Tomdi tumani **0,1 %** ulush bilan **350,4** ming AQSH dollarini tashkil etdi.

NAVOIY VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-mart, mln. AQSH dollarri, ulushi, % da)



Tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2023- yil yanvar-mart oylarida, tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi **28,4 %** ni tashkil etdi.



Boshqa xorijiy davlatlarning tashqi savdo aylanmasi 2023- yil yanvar-mart oylarida 2022- yilning shu davriga nisbatan **131,0 %** ni, jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi **71,6 %** ni tashkil etdi.




NAVOIY VILOYATINING EKSPORTI



Hisobot davrida tovarlar va xizmatlar eksporti bilan shug'ullanuvchi xo'jalik yurituvchi subyektlarning eksport hajmi **147,9** mln. AQSH dollarini tashkil etdi. 2022- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **118,9 %** ni tashkil etdi.



XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (2023- yil yanvar-mart, ulushi % da)



Eksport tarkibida asosan katta ulush kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (**74,8 %**), sanoat tovarlari (**13,5 %**), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**5,8 %**) hissasiga tog'ri kelmoqda.




**NAVIOY VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI
TARKIBI**
(yanvar-mart, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln. AQSH dollarri		O'zgarish sur'ati, % da	Umumiy hajmga nisbatan, % da
	2022	2023		
Jami eksport	124,3	147,9	118,9	100,0
<i>shu jumladan:</i>				
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	4,6	8,6	186,8	5,8
Ichimliklar va tamaki	0,1	-	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	20,0	1,2	5,8	0,8
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,7	3,2	4,5 b.	2,2
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	-	-	-	-
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	75,5	110,6	146,6	74,8
Sanoat tovarlari	18,9	20,0	105,7	13,5
Mashinalar va transport asbob-uskunalarini	-	0,3	-	0,2
Turli xil tayyor buyumlar	3,2	3,7	114,1	2,5
Xizmatlar	1,3	0,3	20,5	0,2

2023- yilning yanvar-mart oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, tovarlar va xizmatlar tarkibida 2022- yilning mos davriga nisbatan sezilarli o'zgarishlar qayd etildi, biroq shuni ta'kidlash joizki, 2022- yilning mos davriga nisbatan mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar, oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar, kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar, turli xil tayyor buyumlar hamda sanoat tovarlarining eksport tarkibida o'sish kuzatildi.




NAVOIY VILOYATINING EKSPORT HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-mart, mln. AQSH dollar)



Navoiy viloyatida 2023- yil yanvar-mart oylarida eksport hajmi **147,9** mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-mart, mln. AQSH dollar, ulushi, % da)



2023- yilning yanvar-mart oylarida MDH mamlakatlariga **22,9** mln. AQSH dollar qiyamatidagi tovar va xizmatlar eksport qilinib, jami eksportning **15,5 %** ni tashkil etdi.



NAVOIY VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2023- yil yanvar-mart, % da)



2023- yilning yanvar-mart oylari yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Fransiya (eksport umumiyligi hajmining **65,3 %**), Rossiya Federatsiyasi (**8,1 %**), Hindiston (**7,4 %**), Turkiya (**5,1 %**), Afg'oniston (**3,5 %**), Qozog'iston (**2,7 %**) va Qirg'iz Respublikasi (**2,0 %**) saqlanib qolmoqda hamda ularning jami eksportdagi ulushi **94,1 %** ni tashkil etmoqda.



NAVOIY VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-mart, yillar kesimida)

Davlatlar	Ming AQSH dollarri		O'sish sur'ati, % da	Egallab turgan o'rni
	2022	2023		
Fransiya	35 512,2	96 538,0	2,7 b.	1
Rossiya Federatsiyasi	25 506,3	11 923,9	46,7	2
Hindiston	-	10 932,9	-	3
Turkiya	7 058,9	7 607,4	107,8	4
Afg'oniston	3 755,0	5 223,1	139,1	5
Qozog'iston	4 210,9	3 995,2	94,9	6
Qirg'iz Respublikasi	3 075,0	2 937,6	95,5	7
Litva	2 009,4	1 883,8	93,7	8
Belarus Respublikasi	53,9	1 656,9	30,7 b.	9
Tojikiston	1 293,7	1 447,4	111,9	10
Xitoy Xalq Respublikasi	566,1	1 074,0	189,7	11
Turkmaniston	2 750,1	662,1	24,1	12
Eron Islom Respublikasi	169,9	477,7	2,8 b.	13
Daniya	-	338,0	-	14
Polsha	603,0	283,1	47,0	15
Pokiston	39,9	261,8	6,6 b.	16
Ozarbayjon	233,7	136,7	58,5	17
Ukraina	274,5	74,8	27,2	18
Armeniya	-	68,9	-	19
Koreya Respublikasi	2,1	64,0	30,5 b.	20

Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Jumladan, hisobot davrida tovarlar va xizmatlar eksportida ishtirok etgan davlatlar soni **30** tani tashkil etdi.



NAVOIY VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI (2023- yil yanvar-mart)

	Hajm Ming AQSH dollarri	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
Navoiy viloyati	147 865,0	118,9	100,0
Navoiy sh.	112 187,2	117,0	75,9
Zarafshon sh.	621,4	3,9 b.	0,4
G'ozg'on sh.	693,2	3,4 b.	0,5
<i>tumanlar:</i>			
Karmana t.	12 886,8	115,2	8,7
Konimex t.	224,1	132,3	0,1
Qiziltepa t.	9 988,4	140,0	6,8
Navbahor t.	7 387,8	107,0	5,0
Nurota t.	1 539,6	2,1 b.	1,0
Tomdi t.	132,4	120,8	0,1
Uchquduq t.	264,0	125,9	0,2
Xatirchi t.	1 849,9	120,0	1,2
Bo'linmaydigan hajm	90,2	-	0,1

Eng yuqori hajm,
ming AQSH dollarari



Karmana t. 12 886,8

Qiziltepa t. 9 988,4

Eng quyisi hajm,
ming AQSH dollarari



Konimex t. 224,1

Uchquduq t. 264,0

Viloyatning eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Navoiy shahri **75,9 %** ulush bilan **112 187,2** ming AQSH dollarini tashkil etdi.

Viloyatda eksporti tarkibida eng quyisi ulushni Tomdi tumani **0,1 %** ulush bilan **132,4** ming AQSH dollarini tashkil etdi.



TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORT DINAMIKASI

(yanvar-mart, % da)

XSST tarkibi	2021- y.	2022- y.	2023- y.
Jami	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	3,5	3,7	5,8
Ichimliklar va tamaki	-	0,1	-
Nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilg'idan tashqari	2,5	16,1	0,8
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	1,2	0,6	2,2
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	-	-	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	68,3	60,7	74,8
Sanoat tovarlari	19,0	15,2	13,5
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	0,3	-	0,2
Turli xil tayyor buyumlar	3,1	2,6	2,5
Xizmatlar	2,1	1,0	0,2

2023- yil yanvar-mart oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, so'ngi uch yil davomida eksport tarkibi dinamikasida kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlari ulushi **6,5** punktga oshib **74,8** % ni, oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlari ulushi **2,3** punktga oshib **5,8** % ni tashkil etdi.

NAVOIY VILOYATINING AYRIM DAVLATLAR BILAN EKSPORT TARKIBI

(2023- yil yanvar-mart, mln. AQSH dollarri)


XSST tarkibi	Fransiya		Rossiya Federatsiyasi		Hindiston		Turkiya	
	2022-y.	2023-y.	2022-y.	2023-y.	2022-y.	2023-y.	2022-y.	2023-y.
Jami eksport	35,5	96,5	25,5	11,9	-	10,9	7,1	7,6
shu jumladan:								
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	-	-	-	0,1	-	-	0,1	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	-	-	16,7	0,1	-	-	0,5	0,4
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xhash materiallar	-	-	0,2	0,1	-	-	0,5	2,8
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xhash mahsulotlar	35,5	96,5	-	0,5	-	10,9	-	-
Sanoat tovarlari	-	-	5,5	7,6	-	-	5,5	4,4
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	-	-	-	0,1	-	-	-	-
Turli xil tayyor buyumlar	-	-	2,5	3,3	-	-	-	-
Xizmatlar	-	-	0,6	0,1	-	-	0,5	-



Ushbu mamlakatlarga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga asosan kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xhash mahsulotlar hamda sanoat tovarlari kiradi.



XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI (2023- yil yanvar-mart, ulushi, % da)




Xizmatlar eksporti hajmi 0,3 mln. AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining **0,2 %** ni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **20,5 %** ni tashkil etdi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi moliyaviy xizmatlar (**50,5 %**), transport xizmatlari (**26,6 %**) va safarlar (turizm xizmatlari) (**22,9 %**) hissasiga to'g'ri kelgan.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI (2023- yil yanvar-mart, ming AQSH dollarri)

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan **3 172,3** ming AQSH dollar qiymati **4 393,0** tonna meva-sabzavot eksport qilingan hamda 2022- yilning mos davriga nisbatan **2,9** b. ni tashkil qildi. Meva-sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash jami eksport hajmida **2,1 %** ni tashkil etmoqda. Shundan salmog'i yirik hududlarda meva-sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishslash eksporti hajmi Qiziltepa tumanida **1 133,1** ming AQSH dollarini, Xatirchi tumanida **1 106,8** ming AQSH dollarini, Navbahor tumanida **330,7** ming AQSH dollarini va Navoiy shahrida **245,6** ming AQSH dollarini tashkil etmoqda.





MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2023- yil yanvar-mart)

Davlatlar	Tonna	Ming AQSH dollarri	Ulushi, % da *
Qozog'iston	3 103,3	1 587,3	50,0
Xitoy Xalq Respublikasi	1 020,2	1 070,4	33,7
Pokiston	93,0	261,8	8,3
Isroil	11,0	62,6	2,0
Rossiya Federatsiyasi	39,5	56,1	1,8
Aljir	36,0	52,3	1,7
Koreya Respublikasi	48,0	45,4	1,4
Eron Islom Respublikasi	42,0	36,4	1,1

* qiyamat ifodasidan



2023- yil yanvar-mart oylarida meva va sabzavotlar eksportining qiyamat jihatidan eng katta hajmi Qozog'iston (**50,0 %**), Xitoy Xalq Respublikasi (**33,7 %**) va Pokiston (**8,3 %**) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.



NAVOIY VILOYATINING IMPORTI




2023- yil yanvar-mart oylarida import hajmi **144,1** mln. AQSH dollarini va 2022- yilning mos davriga nisbatan **108,1 %** ni tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob- uskunalarini (**53,5 %**), sanoat tovarlari (**24,6 %**), kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (**8,7 %**) ga to'g'ri keldi.



XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI (2023- yil yanvar-mart, ulushi, % da)



Tovar va xizmatlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2023- yilning yanvar-mart oylarida import qilingan tovarlar hajmi **140,4** mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa **3,7** mln. AQSH dollariga yetdi.



NAVOIY VILOYATINING XSST BO'YICHA IMPORTI TARKIBI

(yanvar-mart, yillar kesimida)


XSST tarkibi	Mln. AQSH dollarri		O'sish sur'ati, % da	Umumi hajmga nis-batan. % da
	2022	2023		
Jami import	133,3	144,1	108,1	100,0
<i>shu jumladan:</i>				
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	5,3	7,1	133,8	4,9
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	2,0	2,4	125,5	1,7
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xhash materiallar	8,7	0,1	1,6	0,1
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	-	1,5	-	1,0
Kimyoviy vositalar va shunga o'xhash mahsulotlar	24,6	12,5	50,6	8,7
Sanoat tovarlari	37,2	35,5	95,3	24,6
Mashinalar va transport asbob-uskunalarini	45,5	77,0	169,2	53,5
Turli xil tayyor buyumlar	6,8	4,3	63,7	3,0
Xizmatlar	3,2	3,7	115,3	2,5

Importning eng katta ulushi, mashinalar va transport asbob-uskunalarini (**53,5 %**), sanoat tovarlari (**24,6 %**), kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (**8,7 %**) va oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**4,9 %**) hissasiga to'g'ri keladi.

Import qilinadigan tovar va xizmatlarning umumiyligi hajmining tuzilishini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, 2022- yilning mos davriga nisbatan mashinalar va transport asbob-uskunalarini (**69,2 %**), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**33,8 %**), nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilg'i dan tashqari (**25,5 %**) va xizmatlar (**15,3 %**) o'sgan.



NAVOIY VILOYATINING IMPORT HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-mart, mln. AQSH dollar)




Navoiy viloyatida 2023- yil yanvar-mart oylarida import hajmi **144,1 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.**

MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-mart, mln. AQSH dollar, ulushi, % da)

MDH mamlakatlari va boshqa xorijiy davlatlar bilan import ulushining dinamikasi joriy davrda ushbu ko'rsatkich **41,6** va **58,4 %** ni tashkil etdi.



Yetti yirik hamkor davlatlar (Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston, Turkiya, Litva, Hindiston va Koreya Respublikasi) jami importning **81,0 %** ini tashkil qiladi, bu **116,6 mln. AQSH dollarini** tashkil etadi.



NAVOIY VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2023- yil yanvar-mart, % da)





NAVOIY VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI

(yanvar-mart, yillar kesimida)

Davlatlar	Ming AQSH dollarri		O'sish sur'ati, % da	Umumiy hajmdagi o'rni
	2022	2023		
Rossiya Federatsiyasi	31 604,4	45 378,9	143,6	1
Xitoy Xalq Respublikasi	41 596,5	37 723,9	90,7	2
Qozog'iston	26 822,2	13 764,2	51,3	3
Turkiya	5 132,0	7 919,7	154,3	4
Litva	617,4	4 409,8	7,1 b.	5
Hindiston	3 880,8	4 114,6	106,0	6
Koreya Respublikasi	6 325,8	3 289,9	52,0	7
Latviya	99,9	3 193,3	32,0 b.	8
Chexiya Respublikasi	686,1	2 644,1	3,9 b.	9
Yaponiya	1 365,3	2 509,9	183,8	10
Estoniya	-	1 850,0	-	11
Ispaniya	0,6	1 787,7	3158,4 b.	12
Kanada	1 249,1	1 720,0	137,7	13
Finlyandiya	-	1 664,1	-	14
Germaniya	3 638,0	1 502,3	41,3	15
Polsha	191,8	1 425,0	7,4 b.	16
Shvetsiya	-	1 298,6	-	17
Buyuk Britaniya	94,0	1 096,3	11,7 b.	18
Eron Islom Respublikasi	3 160,2	1 010,3	32,0	19
Daniya	-	1 002,5	-	20

2023- yil yanvar-mart oylari yakuni bo'yicha **44** ta davlatlar bilan tovarlar va xizmatlar importi amalga oshirildi.



NAVOIY VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI (2023- yil yanvar-mart)

	Hajm Ming AQSH dollarlari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
Navoiy viloyati	144 135,9	108,1	100,0
Navoiy sh.	72 111,9	185,0	50,0
Zarafshon sh.	1 264,3	52,3	0,9
G'ozg'on sh.	175,6	175,6 b.	0,1
<i>tumanlar:</i>			
Karmana t.	55 664,9	73,2	38,6
Konimex t.	232,4	12,6 b.	0,2
Qiziltepa t.	4 908,6	138,7	3,4
Navbahor t.	4 216,0	2,4 b.	2,9
Nurota t.	155,9	14,6	0,1
Tomdi t.	218,0	168,3	0,2
Uchquduq t.	2 453,6	29,9	1,7
Xatirchi t.	2 563,7	2,9 b.	1,8
Bo'linmaydigan hajm	171,0	-	0,1

**Eng yuqori hajm,
ming AQSH dollarari**




**Eng quyi hajm,
ming AQSH dollarari**




Viloyatning import tarkibida eng yuqori ulushni Navoiy shahri **50,0 %** ulush bilan **72 111,9** ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Nurota tumani **0,1 %** ulush bilan **155,9** ming AQSH dollarini tashkil etdi.



TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI DINAMIKASI

(yanvar-mart, % da)

XSST tarkibi	2021- y.	2022- y.	2023- y.
Jami	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	3,2	4,0	4,9
Nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilg'idan tashqari	0,8	1,4	1,7
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	-	6,5	0,1
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	-	-	1,0
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	9,4	18,5	8,7
Sanoat tovarlari	12,3	27,9	24,6
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	61,8	34,2	53,5
Turli xil tayyor buyumlar	5,8	5,1	3,0
Xizmatlar	6,7	2,4	2,5




2023- yil yanvar-mart oylarida import qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko'rsatdiki, mashinalar va transport asbob-uskunalarida 2022- yilning mos davriga nisbatan importning ulushi **34,2 %** dan **53,5 %** gacha, oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlarda importining ulushi **4,0 %** dan **4,9 %** gacha, nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilg'idan tashqari mahsulotlarda esa **1,4 %** dan **1,7 %** gacha o'sdi.



XIZMATLAR IMPORTI TARKIBI (2023- yil yanvar-mart, ulushi, % da)

2023- yil yanvar-mart oylari yakuni bilan xizmatlar importi hajmi **3,7** mln. AQSH dollarini yoki jami import hajmining **2,5** % ini tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **115,3** % ni tashkil etdi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi transport xizmatlari (**81,9** %), safarlar (turizm xizmatlari) (**0,2** %) va boshqa xizmatlar (**17,9** %) dan iborat bo'ldi.



Shu bilan, tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va dunyo mamlakatlari bilan olib borilayotgan mustahkam aloqalar natijasida viloyatimizning eksport salohiyati oshib borayotgani yaqqol namoyon bo'limoqda.

Shuningdek, bir qator soliq, bojxona imtiyozlarining yaratilishi, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarilishi milliy mahsulotlarimizni tashqi bozorlarda mustahkam o'rin egallashlari uchun zamin yaratmoqda.